

O'ZBEK MEDIADISKURSIDA NUTQIY AKT TURLARINING NAMOYON BO'LISHI

Axmadjonov Nurbek¹

Toshmatova Farangis²

Farg'ona Davlat Universiteti

KEYWORDS

Nutqiy aktlar, lokutiv akt,
illokutiv akt, perlokutiv akt,
o'zbek mediadiskursi, diskurs
tahlil.

ABSTRACT

Mazkur maqola o'zbek mediadiskursida nutqiy aktning ahamiyati va uning turlarini o'rganishga bag'ishlanadi. Nutqiy aktlarning qo'llanish xususiyatlarini O'zbekiston ommaviy ahborot vositalari, xususan teleko'rsatuvlar, ijtimoiy tarmoqlarda bo'layotgan bahs-munozaralarning publistik janrli matnlar misolida o'rganadi.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: **10.5281/zenodo.15354501**

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Kirish.

Avvalambor nutqiy akt nima degan savolga javob bersak, nutqiy akt bu yozma yoki og'izaki ifoda bo'lib, biror bir shaxs yoki guruhning fikr va harakatlari haqida ma'lumot beradi. U muhim bo'lgan uchta elementdan tashkil topadi, bular: mavzu, maqsad va qabul qiluvchi. Nutqiy aktlar asosan muloqot jarayonida, suhbat, maruza yoki muhokamalarda yuzaga keladi. Nutqiy aktlar uchta asosiy turlarga bo'linadi, bular: ijtimoiy nutqiy aktlar, informativ nutqiy aktlar va persuaziv nutqiy aktlar.

Ijtimoiy nutqiy aktlar – bu ijtimoiy munosabatlar va o'zaro aloqalarni ifodalaydi. Misol tariqasida ijtimoiy tarmoqdagi po'stlarni olsak, hozirgi kunda ko'plab insonlar ijtimoiy tarmoqlarga bog'lana oladi va deyarli hammasida eng mashhur programmalardan bo'lgan instagram, facebook yoki telegram mavjud va u yerda o'z sahifalari yoki kannal va guruhlarini ochib o'z fikr mulohazalarini, tajribalari va muamolarini baham ko'rishadi. Keying misol sifatida muhokama dasturlarini olsak, bunda mutaxassislar va oddiy fuqarolar ishtirok etib o'z fikrlarini bayon qilishadi, shunday dasturlardan biri bu "O'zbekiston" telekanalidagi "Muhokama" dasturi. Ijtimoiy nutqiy aktlarning so'ngi misoli tariqasida intervyularni olsak

¹ Farg'ona Davlat Universiteti nemis va fransuz tillari kafedrasi dotsenti filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

² Filologiya fakulteti "ingliz tili" yo'nalishi 3 – kurs talabasi

bunga muhim shaxslar bilan intervyular o'tkazish kiradi, misol uchun siyosatchilar yoki san'atkorlar bilan bo'lgan intervyular, bunda ularning fikrlari va dunyoqarashlari ochib beriladi.

Informativ nutqiy aktlar – bular odatda obyektiv va aniq bo'lishi bilan ajralib turadi, ya'ni ma'lumot berish va bilim tarqatish maqsadida amalga oshiriladi. Bularga misol ko'rinishida yangiliklarni olsak xususan O'zbekistondagi yangilik portallari “Daryo” , “kun_uz” kabi portallar yangiliklarni tez va aniq yetkazadi. Ularning asosiy mavzulari siyosat, iqtisodiyot, madaniyat va sportni qamrab oladi. Keying misol tariqasida tahliliy maqolalarni olsak bunga “O'zbekiston 24” kanalidagi tahliliy dasturlar undagi ekspertlar mamlakatdagi iqtisodiy holatni tahlil qilishadi. So'ngi misolimiz esa, o'qituvchilar tomonidan tayyorlangan ma'ruzalar. Bunda o'qituvchilar o'quvchilarga bilim yetkazish uchun ma'ruza matnlarini tayyorlashadi.

Persuaziv nutqiy aktlar – bu turdagi nutqlar asosan hissiyotlarga ta'sir qiladi, ya'ni ularning maqsadi tinglovchini biror fikrga undashdan iborat. Misol uchun, reklamalar, bu orqali sotuvchilar telekanallarda o'z mahsulotlarini reklama qilishadi, hoh bu oziq ovqat bo'lsin, hoh maishiy texnika, shu orqali o'z mahsulotlarini sotib olishga undashadi. Ikkinchi misol tariqasida jamoatchilikning fikrini o'zgartirishga qaratilgan materiallarni olsak, ularda ekologiya, sog'liqni saqlash kabi mavzularda maqolalar va blog postlar yoziladi. Uchunchi misol tariqasida siyosiy nutqlarni olsak, bunda siyosatchilar saylovoldi kompaniyalarida o'z dasturlarini taqdim etishda persuaziv nutqiy aktlardan foydalaniladilar.

Nutqiy aktlar nazariyasi dastlab J.L.Austin tomonidan ilgari surilgan 1962 – yilda va keyinchalik J.R.Searle tomonidan rivojlantirilgan. Bunga ko'ra nutqiy akt turlari:

Lokutiv akt – gapirish harakati ya'ni Grammatik jihatdan to'g'ri gap qurilishi.

Illokutiv akt – gapning niyati ya'ni so'rov, buyruq, iltimos yoki taklif. Har qanday gapni ifoda etishdan ma'lum bir maqsad ko'zlanadi. Bu maqsad til sohibi ongida doimo mavjud. Ushbu maqsadning voqealanishi esa illokutiv akt natijasidir.²

Perlokutiv akt – tinglovchiga ta'sir yan'ni uning fikri yoki harakatini o'zgartirish.

Searle tasnifi bo'yicha asosiy nutqiy aktlar:

Assertivlar – biror fakt yoki fikrni bildirish. Misol uchun: “Prezident nutq so'zladi”

Direktivlar – biror harakatga undash. Misol uchun: “Sizdan iltimos, bu muhim xabarni do'stlaringizga ulashing”

Komissivlar – majburiyatni bildirish. Misol uchun: “Men bu vazifani bajaraman”

Ekspressivlar – hissiyot va munosabatni ifodalash. Misol uchun: “Sizdan juda mamnunman”

Deklarativlar – biror holatni o'zgartiruvchi nutqlar. Misol uchun: “Siz ishdan bo'shatildingiz”

O'zbek mediadiskursi atamasiga duch kelar ekanmiz avvalambor mediadiskurs nima ekanligini sharxlab o'task. Mediadiskurs bu ommaviy axborot vositalarida yuzaga keladigan, til va nutq holatlarini anglatadi. U og'izaki va yozma shakllarda talqin etiladi. Yozma mediadiskursga misol tariqasida maqolalar va yangiliklarni olsak, og'izaki mediadiskursga

² Сафаров Ш.Х. Прагмалингвистика. Тошкент, 2008.

radio, TV chiqishlar misol bo'la oladi. O'zbek mediadiskursining tipik belgilariga : rasmiylik va standart til me'yorlariga rioya qilishni, davlat siyosati va ijtimoiy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirishni, milliy, diniy va madaniy omillarning inobatga olinishini kiritish mumkin. O'zbek mediadiskursida nutqiy aktlarning namoyon bo'lishi bir necha jihatlarida ko'rinadi. Misol uchun til va uslub, bunda o'zbek tilidagi nutqiy aktlarning xususiyatlari jumladan leksik, sintaktik va stilistik jihatlar aks etadi. Nutqiy aktlarning kimga qaratilgani va qanday ta'sir qilishigaqa ko'ra maqsadli auditoriyalar tashkil etishda ham namoyon bo'ladi. Misol uchun yoshlar, ayollar va professional mutaxassislar.

Tadqiqot uslublari:

Diskurs tahlili: mediatekstlarni pragmatik va stilistik jihatdan tahlil qilish.

Corpus linguistics: mediamatnlar korpusini yaratish va statistik tahlil qilish.

Kontekstual tahlil: nutqiy aktlarning siyosiy, madaniy kontekstda qanday ishlatilishini ko'rish.

Xulosa.

O'zbek mediadiskursida vaqt o'tishi bilan nutqiy aktlarning namoyon bo'lishi va ularning xususiyatlari o'zgarib bormoqda. Misol uchun raqamli kommunikatsiya, bunda internet va ijtimoiy tarmoqlar rivojlanishi bilan, informative va persuziv nutqiy aktlar yangi formatda ya'ni video infografika ko'rinishlarida paydo bo'lmoqda. Keying misol sifatida ayollar va yoshlarning ishtirokini olsak, hozirgi kunda o'zbek mediadiskursida ayollar va yoshlarning ovozi ko'proq eshitilmoqda. Misol uchun, ayol jurnalistlar tomonidan yozilayotgan maqolalar, intervyular yoki yoshlarning ijtimoiy muamolar haqidagi fikrlari.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1.inlibrary.uz sayti

2.phoenixpublication.net sayti

3.cyberleninkaa.ru sayti

4.Austin,J.L (1962). How to Do Things with Words. Oxford: Clarendon Press.

5. Searle. J.R (1969). Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. Cambridge: Cambridge University Press

6. Сафаров Ш.Х. Прагмалингвистика. Тошкент, 2008.